

**SH.BOSHBEKOVNING “TEMIR XOTIN “ ASARIDA GRAMMATIK  
MA’NONING IFODALANISHI**

**Mustafayeva Nodira Abdujalilovna**

*O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*O’zbek va chet tillari kafedrasи o’qituvchisi*

Badiiy matnda lisoniy vositalarning badiiy matnda nutqiy voqelanishi masalasi tilshunoslar tomonidan atroflicha tadqiq etilmoqda. Nutqiy ixtisoslashuvga sabab bo’luvchi asarlarda til imkoniyatlaridan foydalanishda o’ziga xoslik borki, uni alohida o’rganish eng avvalo, til va nutq dialektikasiga doir yangi yondashuvlarga e’tibor qaratish kerak. Professor R.Sayfullayevaning fikricha, dialektika har qanday o’rganish manbaida, borliqdagi har bir narsada ikki jihat bor va uni quyidagi ikki tomonli kategoriylar asosida sistemalashtirish maqsadga muvofiq:

- Umumiylilik - alohidalik
- Mohiyat - hodisa
- Imkoniyat - voqelik
- Sabab – oqibat.

Birinchi jihat (uni tegishli kategoriyalarning bosh harflari asosida qisqacha UMIS deb ataymiz) narsalarning bevosa kuzatishda berilmagan substansiysi bo’lib, aqliy, idrokiy usul bilan anglanadi.

Ikkinci jihat esa (AHVO – alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat) UMISning voqelanishi bo’lib, uni tadqiqotchi, o’rganuvchi kishi sezgi a’zolari yordamida his qila oladi.

Grammatik ma’noning nutqiy voqelanishi haqida gap ketganda, avvalo, grammatik ma’no haqidagi ilmiy mulohazalarga ham munosabat bildirish lozim. Bu borada ham R.Sayfullayeva va B.Mengliyevlarning yondashuvlari o’ziga xos ilmiy asosga ega. Olimlarning fikriga ko’ra, grammatik ma’noning bevosa nutqni shakllantirishi deganda shuni tushunish lozimki, lisoniy birlik grammatik ma’nadan xoli qilinsa, u nutq uchun tayyor bo’lmay qoladi. Masalan, [bola] leksemasing lug’aviy ma’nosini nutqqa grammatik ma’no vositasida kiradi. Uning kelishik, son, sub’yektiv baho, hokim yoki tobe uzviylik, qaysi gap bo’lagi ekanligi kabi grammatik ma’nolari lisoniy sathda yo’q. Demak, leksema lug’aviy ma’nosini ustiga ana shu grammatik ma’no yuklansa, u nutq tarkibiga kira oladi. Anglashiladiki, grammatik ma’no nutqda to‘g’ridan-to‘g’ri voqelanaveradi. Bunga morfologik shaklning grammatik ma’nosini asosida amin bo’lish mumkin.

Grammatik ma’no, odatda, mavhum tushunchadan iborat bo’lib, shu xildagi boshqa tushunchalar bilan birga so‘zning leksik ma’nosiga qo’shimcha tarzda ifodalanadi, gap

qurilishi sistemasida so‘zning vazifasi va o‘rnini belgilaydi. Masalan, kelishik shakllari otning boshqa so‘zlar bilan sintaktik aloqasini ko‘rsatadi, uning gapda ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida kelishini ta’minlaydi.

Grammatik ma’no umumlashma tabiatga ega deganda uning juda ko‘p lisoniy birliklarga birday tegishli, umumiyligi ekanligi nazarda tutiladi. Masalan, mustaqil so‘z turkumlarining grammatik ma’nosi juda katta miqdordagi so‘zlar uchun umumiyligi. O‘zbek tilida grammatik ma’no ifodalashning quyidagi vositalari mavjud:

- 1) affiksal vosita;
- 2) sof nomustaqlar va nomustaqlar vazifadagi so‘z;
- 3) so‘z tartibi;
- 4) takror;
- 5) ohang;
- 6) sintaktik qolip.

Har qanday grammatik ma’no nutqiy voqelanganda boshqa uslubiy ma’nolarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, kelishik, egalik, shaxs-son kategoriyalari badiiy matnlarda turli pragmatik ma’nolarni ham ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Otlarga xos bo‘lgan son kategoriysi grammatik ko‘plik ma’nosidan tashqari nutqda turli ma’nolarni ham ifodalab keladi.

**SHAROFAT.** Bozorvoy akam ikki qopgina bodring olib, bozorga ketuvdilar.

**QO‘CHQOR.** Ha-a... Uyda bo‘lsa tok qaychisini berib tursin, devdim.

Ishkom ja tarvaqaylab ketibdi...

**SHAROFAT.** Kelsalar o‘zlaridan so‘rarsiz, bo‘lmasa urishib beradilar. (G‘oyib bo‘ladi)

**OLIMJON.** (kulib). Birovni birov o‘ylab chiqaradimi, qiziqmisiz. Xo‘sish, sog‘liklar yaxshimi, Qo‘chqor aka?(Sharof Boshbekov.”Temir xotin”asari) Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibida kelgan -lar affiksi ikki xil ma’no ifodalab turibdi. Birinchi holatda sof ko‘plikni ko‘rsatib turgan bo‘lsa, ikkinchi holatda sof ko‘plik emasligi ko‘rinib turibdi, zero juft narsalar mantiqan ham ko‘p hisoblanmaydi.

Olmosh so‘z turkumiga ko‘shilib kelganda ham turli grammatik ma’nolarni ifodalaydigan ko‘plik qo‘sishimchasi bu o‘rinda ham o‘z grammatik vazifasini bajarib kelgan. Insondagi juft a’zolarni ifodalovchi so‘zlar aslida ko‘p hisoblanmay, ularga qo‘sishilib kelgan grammatik ko‘plik kuchaytirish ma’nosidagi uslubiy vazifani bajarib kelmoqda.

**OLIMJON.** Hozir... («diplomat»idan gugurt qutisiday keladigan bir qancha yupqa plastinkalarni olib.) Mana, manavilar — mikrosxemalar. Hammasi har xil maqsadda ishlataladi. (Robotning yelkasidagi qopqog‘ini ochib.) Mana bu yeriga kerakli

mikrosxemani o‘rnatamiz. Keyin munday qilib, qop-qog‘ini yopib qo‘yamiz. Ana, tayyor! E, xudo, sharmanda qilma! (Robotning tugmachasini bosadi.)

Alomat avval ko‘zlarini pirpiratib qo‘yadi, so‘ng bir necha qadam oldinga yurib, to‘xtaydi. (Sharof Boshbekov.”Temir xotin” asari)

Grammatik ma’noni ifodalovchilar orasida ko‘plik shaklining alohida o‘rni bor, u nutqiy vaziyat taqozosiga ko‘ra har xil uslubiy ma’no ottenkalarini bildiradi. Masalan, quyidagi jumlada qo‘llanilgan -lar affiksi ko‘pincha bajarib kelgan jamlik va umumiylilik ma’nosidan ham boshqacharoq vazifada kelayotganini ko‘rish mumkin.

Qumri. Voy, Muhiddin akaning gaplari-da, menga nima deysiz?

Qo‘chqor. Muhiddin aka, degin? ... (Sharof Boshbekov.”Temir xotin” asari)

Aslida, bu yerda ko‘plik qo‘sishimchasi qahramonning fikrini bildiradi. Agar “Dildoralarnikiga bordik” deyilsa, umumiylilik tushuniladi, chunki uy Dildora va uning qarindoshlari uchun umumiy. “Biznikiga Dildoralar keldi” deganda esa, jamlik ma’nosi farqlanadi. Ammo yuqoridagi o‘rinda har ikkisidan ham boshqacha uslubiy ma’no ifodalanmoqda.

Ko‘plikni ifodalovchi grammatik vositalar joy nomlarini anglatuvchi so‘zlar tarkibida ham ko‘p ko‘llanilib keladi. Bu o‘rinda ham sof grammatik ko‘plik nazarda tutilmaydi. QUMRI. Muhiddin akaning o‘g‘li ikkita o‘rtog‘i bilan armiyadan kelgan ekan. Otpuskaga. Avval uch kishi bo‘lib o‘shalar chiqishdi. Hech bo‘y bermadingiz. (Sharof Boshbekov.”Temir xotin” asari)

Har holda mantiqiy jihatda -lar affiksini qo‘llash zarurati bor.

-lar affiksi turdosh otlarga qo‘silib kelganda ko‘pincha sof grammatik ma’no va o‘z vazifasini bajaradi. Ammo nutqiy vaziyat matnning umumiy kayfiyatida bu ko‘plik ma’nosiga yana ba’zi uslubiy ma’no ottenkalari ko‘silib ketadi: QUMRI(achinib,sidqidildan). Yecholmayman,dadasi,mendan xafa bo‘lmang. Tushlikdan keyin qishloq oqsoqollari kelamiz, bir yaxshilab gaplashib qo‘yaylik,bo‘lmasa dumini ushlatmaydi,deb ketishdi...

QO‘CHQOR.Nima,mening dumimni ushslashdan boshqa ishi yo‘q ekanmi ularning?Oqsoqollarmish yana!..

QUMRI(ichkariga).Turobjon,bo‘laqol,bolam!

QO‘CHQOR (xotinining taraddudga tushganini endi payqab). Ha, yo‘l po‘stak? (Sharof Boshbekov.”Temir xotin” asari)

Qoidaga bo‘ysunadigan so‘zlar quyidagi misolda ham qo‘llanilgan. Faqat bu yerda ko‘plik shakli oxirgi so‘zga qo‘silib kelmoqda. Masalan:

Qumri (Birpas eriga ta’na aralash qarab turadi-da, dordagi kiyim-kechaklarini yig‘ishtira boshlaydi. (Sharof Boshbekov.”Temir xotin”asari )// Bu yerda dasta, bog‘ kabi o‘lchov so‘zları ko‘plik shaklining ko‘llanilishiga imkon bermaydi.

Odam so‘zi shaxs otini ifodalab, sanalish imkoniyati bo‘lganda unga qo‘shiladigan -lar affiksi grammatik ko‘plikni bildiradi. Ammo quyidagi nutqiy vaziyatda grammatik ma’nodan tashqari yana boshqa sotsiopragmatik munosabatlar ham anglashiladi: Qumri.”Hukumat ichmanglar deb , deb qaror chiqarib qo ‘yibdi, bu ahmoqqa shuyam ta’sir qilmaydi “ ,dedilar

Qo‘chqor. Ho-o, qarorniyam bilarkanlarmi! O‘zi sakkizinchisinfda qolib ketgan!Chalasavod! Rasmi yo‘q ekan, deb gazit o‘qimaydi.( Sharof Boshbekov.”Temir xotin” )

Aslida, bu o‘rinda -lar affiksi mohiyatan ortiqcha. Negaki, so‘zlovchi bunga o‘xshagan odamlar deb, aynan Ramazонни nazarda tutmoqda, chunki u bundan boshqa o‘zini hayratlantirgan odamni ko‘rmagan.

Narsa-buyumlarga qo‘silib kelgan ko‘plik qo‘shimchasi aniq sanalish imkoni bo‘lgan ko‘p miqdorni anglatishi ma’lum, biroq nutqiy sharoit uning ko‘plik ma’nosiga emas, ma’naviy quvvat, ijtimoiy mavqeni oshirish kabi qo‘sishma ma’no ottenkalariga diqqatni qaratadi:

Sherik deganimiz yoshi yigirma besh yoshlar atrofida, qotmadan kelgan, qirra burun Shavkat ismli o‘g‘ri. (Sharof Boshbekov.”Falakning gardishi”asari)

Insondagi juft a’zolarni anglatuvchi a’zolar birlik shaklida qo‘llanganda ham ikkala a’zo baravar tushuniladi, ammo ba’zi nutqiy vaziyatlar ko‘plik affiksni qo‘llashni va bu orqali ma’noni muayyan darajada kuchaytirishni taqozo qiladi: Qo‘chqor. ...Alomatxon, shu, Qumrining qo‘llari qadoq bosib, yorilib ketgan bo‘lsayam nimasi bor edi-da... (Sharof Boshbekov.”Temir xotin” asari)

Nutqda yana shunday vaziyatlar borki, muayyan qoidalar bir kishiga ham ko‘p kishiga ham birdek tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan, muloqot jarayonida “Bola bilan kirish ta’qiqlanadi”, “Bola uchun alohida to‘lov qilinadi” kabi yorliqlarni uchratish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, juda ko‘p holatda -lar affiksi qo‘shib ishlatilish qoidaga aylangan.

Qumri. Muhiddin akaning o‘gli ikkita o‘rtogi bilan armiyadan kelgan ekan. Otpuskaga Avval uch kishi bo‘lib o‘shalar chiqishdi. Hech bo‘y bermadingiz. (Sharof Boshbekov.”Temir xotin”asari)

Yakka holda turganda ham jamlikni, ko‘plikni ifodalaydigan jamlovchi otlar(xalq, armiya)ga grammatik ko‘plik qo‘silmasligi kerak, biroq nutqiy vaziyatga ko‘ra qo‘llanaveradi:

Qo‘chqor. Nima mening dumimni ushlashdan boshqa ishi yo‘q ekanmi ularning? (Sharof Boshbekov.”Temir xotin”asari)

Xuddi shunday quyidagi misolda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda ham yuqorida keltirilgan so‘zlar bilan bir xil grammatik ma’no ifodalamoqda:

Olimjon... Bir tasavvur qiling-a, paxtazordan xotin-qizlarning quvnoq kulgisi eshitilib turibdi! Qiy-chuv, hazil-huzil! (Sharof Boshbekov.”Temir xotin”asari).

Grammatik ko‘plik ma’nosini ifodalash asosan, turdosh otlar zimmasiga tushadigan bo‘lsa ham, ba’zan umumiylig ma’nosini ham bildirib turadi: Olimjon. Qiyomat-qoyim bo‘ladi! Shunisi qiziqlik, bu yurtning sartaroshlari ham ana shu vatanparvarona harakatdan chetda qolmay, o‘zlaricha unga ulush qo‘shmoqdalar..

Yuqorida keltirilgan qo‘shimcha ma’nolardan tashqari -lar affiksi kishilik olmoshlariga ham ba’zan qo‘shilib kelishi mumkin. 2-shaxs birlikdagi kishilik olmoshiga qo‘shilganda hurmatsizlik, bepisandlik, mag‘rurlik, nafratlanish ma’nolarini ifodalab keladi.

Badiiy asarlarda, oddiy so‘zlashuv nutqida ham ko‘plik shaklidan, asosan, ma’no kuchaytirish, fikrni ta’sirchan qilish maqsadida foydalanib kelinadi.

Umuman, mustaqil so‘z turkumlarining deyarli hammasiga turli vaziyatlarda qo‘shilib keladigan -lar affiksi grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida eng faol qo‘llanuvchi morfologik vositadir. Yozuvchi Sharof Boshbekov asarlari matnida u sof grammatik ko‘plikdan tashqari umumiylik, jamlik, hurmat, aloqadorlik, birqalik, yaqinlik, kuchaytirish, mavhumlik, taxmin va eng asosiysi, nutqiy vaziyatga ko‘ra hurmatsizlik, mensimaslik, manmanlik kabi bir qator uslubiy ma’nolarni ham ifodalashga xizmat qilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi, 2017-yil 4-avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz // I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Sh.Boshbekov “Temir xotin”asari 2017.
5. Xolmurodova M. Ta’lim muassasalarida “Axborot va murabbiylik soati”ni o‘tkazishning samaradorligini ta’minalash asoslari // O‘zbekistonda raqs san’ati rivoji va istiqbollari: ijtimoiy jarayonlar. 1-Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 2018. – B. 12-26.
6. Xolmurodova M. Milliy ma’naviyatning rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rnini (maqollar misolida) // Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 447-454.